



**YASHIRIN IQTISODIYOT DARAJASINI KAMAYTIRUVCHI
MOLIYAVIY MEXANIZMLARNI TAKOMILLASHTIRISH**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10933419>

Рахмедова М.Н

Korporativ moliya va qimmatli qog'ozlar kafedrasida dotsentiPhD

Begjigitov Elmurod Erkinboy o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyoti universiteti

Budjet hisobi va g'aznachilik fakulteti

BNG' 90- guruh talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada yashirin iqtisodiyot darajasiga ta'sir etuvchi omillar bo'yicha adabiyotlar sharhi yoritilgan, moliyaviy mexanizmlardan foydalangan holda yashirin iqtisodiyot darajasini qay tarzda kamaytirish mumkinligi bo'yicha ishlanmalar taklif etilgan. Shu bilan birgalikda tadqiqot natijalariga oid xulosalar shakllantirilgan.

Tayanch so'zlar

yashirin iqtisodiyot, moliya, moliyaviy mexanizm, davlat moliyasi, norasmiy iqtisodiyot, raqamlashtirish, onlayn NKM, Vending mashinalar.

**IMPROVING FINANCIAL MECHANISMS REDUCING THE LEVEL OF
THE HIDDEN ECONOMY**

Rakhmedova M.N

Associate Professor of the Department of Corporate Finance and SecuritiesPhD

Begjigitov Elmurod Erkinboyning o'g'li

Tashkent State University of Economics

Faculty of budget accounting and treasury

BNG' 90th group student

ANNOTATION

This article reviews the literature on the factors affecting the level of the shadow economy, and suggests developments on how to reduce the level of the shadow economy using financial mechanisms. At the same time, conclusions about the research results were formed.

Keywords



hidden economy, finance, financial mechanism, public finance, informal economy, digitization, online POS, Vending machines.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ФИНАНСОВЫХ МЕХАНИЗМОВ, СНИЖАЮЩИХ УРОВЕНЬ СКРЫТОЙ ЭКОНОМИКИ

Рахмедова М.Н

Доцент кафедры «Корпоративные финансы и ценные бумаги» PhD

Бегжигитов Элмурод Эркинбой огли

Ташкентский государственный экономический университет

Факультет бюджетного учета и казначейства

студент 90-й группы БНГ

АННОТАЦИЯ

В данной статье проводится обзор литературы о факторах, влияющих на уровень теневой экономики, и предлагаются разработки по снижению уровня теневой экономики с использованием финансовых механизмов. При этом были сформированы выводы о результатах исследования

Ключевые слова

теневая экономика, финансы, финансовый механизм, государственные финансы, неформальная экономика, цифровизация, онлайн кассовой аппарат, торговые автоматы.

Kirish

Hozirgi kunda yashirin iqtisodiyot barcha rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar oldida turgan muammo hisoblanadi. Bundan tashqari yashirin iqtisodiyotda amalga oshirilayotgan faoliyatlar ko'lami yildan-yilga ko'payib bormoqda, bu esa, o'z navbatida, tizimli o'zgarishlarni talab qiladi.

Raqamli iqtisodiyot davrida yashirin iqtisodiyot darajasini oshi ruvchi bir qator yaxshifaoliyatlar paydo bo'ldi, xususan, hisob-fakturalarni qalbakilashtirish, soxta identifika torlarni tayyorlash va boshqalar, ammo hozirgi davrdagi innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda yashirin iqtisodiyot darajasini aniqlash va uni kamaytirish mumkin.

Soliqqa tortish tizimida amalga oshirilgan o'zgarishlardan biri soliq to'lovchilarga interaktiv davlat xizmat larni yangicha ko'rinishda, «Android» operatsion tizimlarida ishlaydigan smartfon va boshqa zamonaviy mobil aloqa vositalari orqali foydalanishda qulay bo'lgan «Soliq» mobil ilovasi yaratildi. Mazkur mobil ilova orqali barcha soliq to'lovchilar, jumladan, jismoniy shaxslar, tadbirkorlar uchun foydali dasturlardan biri bo'lib, unda soliq qonunchiligiga oid



yangiliklar, soliq organlari, normativ hujjatlar, tez-tez beriladigan savollarga javoblar, soliqqa oid bahsli holatlarni ko'rib chiqish va boshqa ko'plab ma'lumotlarni olish mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Moliyaviy inklyuzivlik iqtiso diyotning yirik sektorining rasmiy moliya tizimida ishtirok etishini ta'minlaganligi sababli, u iqtisodiyotda ijobiy tashqi ta'sirni yaratadi, chunki u pul-kredit siyosatini yanada samarali amalga oshirish imkonini beradi. Aslida, yuqori moliyaviy inklyuziya foiz stavkalarining samarali siyosat vositasiga aylanishiga imkon beradi, shuningdek, Mehrotra A. va Yetman J.[1] Tadqiqotlariga ko'ra, Markaziy banklar narxlar darajasini barqarorlashtirishi mumkin bo'lgan mexanizmni osonlash tiradi. Inklyuzivlik yuqori darajadagi iste'molni yumshatish imkonini berganligi sababli, uy xo'jaliklari jamg'arma va kreditlar darajasini moslashtirish orqali foiz stavkalarining o'zgarishiga moslashish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Yuqori moliyaviy inklyuziya uy xo'jaliklarini o'z jamg'armalarini depozitlarga aylantirishga undashi mumkin. Khan H.R.[2] va Tombini [3] yuqori darajadagi moliyaviy inklyuzivlik foiz stavkalarini nisbatan kuchli va asosiy siyosat vositasiga aylantirishi haqidagi xulosaga kelishgan. Moliyaviy inklyuzivlik ortib borishi bilan pul zaxiralari muomaladagi valyutadan bank tizimidagi foizli depozitlarga aylana boshlaydi. Bu iqtisodiy faoliyatning katta qismini foiz stavkalari nazorati ostida bo'lishiga imkon beradi. Khan H.R. [2] norasmiy sektor qanchalik katta bo'lsa, pul-kredit siyosatini amalga oshirish va nazorat qilish shunchalik qiyin bo'ladi, chunki ko'proq uy xo'jaliklari va kichik biznes egalarining qarorlari markaziy banklarning pul-kredit siyosatini hisobga olmagan holda mustaqil bo'ladi. Bundan tashqari, moliyaviy inklyuziya odamlarni pul iqtisodidan bank iqtisodiyotiga o'tishga undaydi, shuning uchun ularning moliyaviy operatsiyalarini kuzatish mumkin[6].

Mehrotra A. va Yetman J.[1] aniqlik kiritishicha, rasmiy moliyaviy tizimga ko'proq agentlar kiritilganda ishlab chiqarish o'zgaruvchanligi inflyatsiya o'zgaruvchanligiga nisbatan oshadi, chunki moliyaviy agentlar o'zlarining investitsiya va jamg'arma qarorlarini yaxshiroq o'zgartirishga qodir bo'ladilar. Shu sababli, moliyaviy inklyuzivlik oshgani sayin, markaziy banklar narxlarni barqarorlashtirish va shu tariqa moliyaviy barqarorlikni oshirishga e'tibor qaratishlari mumkin bo'ladi. Ba'zi mamlakatlarda markaziy banklar inflyatsiya maqsadlarini aniqlash uchun asosiy narx indeksiga e'tibor berishadi, ammo bu narx indeksini tanlash ba'zida noto'g'ri bo'lishi mumkin. Mbutor, MO, & Uba, IA[4] Nigeriyada 1980 yildan 2012 yilgacha bo'lgan davrda moliyaviy inklyuzivlik darajasining pul-kredit siyosati samaradorligiga ta'sirini tahlil qildi. Ularning natijalari moliyaviy inklyuzivlikning yuqori darajalari muhim rol o'ynaydi degan da'voni qo'llab-quvvatlaydi. Biroq, bank filiallari sonining o'zgaruvchisi



kiritilganda, bu natija qo'llanilmadi, aslida salbiy munosabatni ko'rsatdi[5]. Bu shuni ko'rsatadiki, yangi filiallarni ochishda banklarning maqsadi, asosan, ko'proq foyda olishga intilish, lekin moliyaviy imkoniyatlarni oshirish emas.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu maqolada asosan adabiyotlar sharhidan kelib chiqqan holda yashirin iqtisodiyotni moliyaviy mexanizmlar orqali kamaytirishga oid bo'lgan ishlanmalar taklif etilgan. Xorijiy davlatlarda yashirin iqtisodiyotni kamaytirish bo'yicha xarid cheklarini ro'yxatdan o'tkazish amaliyotining samarasi qiyosiy tahlil qilingan.


Natijalar

Soliq.uz ilovasining afzallik laridan biri hozirgi vaqtda onlayn NKM yoki virtual kassadan xaridorlar o'zlarining xaridlarining cheklarini skaner qilish orqali sovrinli lotoreya o'yinlarida ishtirok etishlari mumkin. Soliq.uz ilovasi orqali xarid cheklarini ro'yxatdan o'tkazish amaliyotini joriy qilishdan maqsad xaridorlarning xaridlarini ko'proq qismini virtual kassadan o'tkazish va bu orqali tadbirkorlik subyektlarining soliqqa tortish bazasini kengaytirish hamda yashirin iqtisodiyot darajasini kamaytirish hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda bu ilovadan yoki mexanizmdan yashirin iqtisodiyot darajasini ham aniqlashda foydalanish mumkindir. Buning uchun xaridorlarning xaridlari ning aksariyat qismini onlayn NKM mavjud bo'lgan subyektlarida amalga oshirishlarini ta'minlash hisoblanadi.

1-rasmda berilgan mexanizmga ko'ra yashirin iqtisodiyot darajasini aniqlash va naqd pul orqali amalga oshirilayotgan savdo hajmini kamaytirish mumkin. Aholining ish haqi va boshqa rasmiy daromadlaridan to'laydigan soliqlari haqida Iqtisodiyot va moliya vazirligida ma'lumotlar mavjud. Boshqa daromadlar qismini inkor qilib turganimizda ham, xarid orqali lotoreyada qatnashish va ma'lum bir cashback ga ega bo'lish imkoniyati aholini faqat Onlayn NKM yoki virtual kassa bor joydan xarid qilishga undaydi, bu esa yashirin iqtisodiyotda faoliyat yuritayotgan savdo va xizmat ko'rsatish shoxobchalarining rasmiy iqtisodiyotga o'tishiga yoki to'lovlarga chek berishiga sabab bo'ladi. Bu, o'z navbatida, yashirin iqtisodiyot darajasini kamaytirishga xizmat qiladi. Aholining boshqa daromadlari bor qismi ham u daromadlardan tovar va xizmatlarni sotib olishda foydalanishlari mumkin. Bu orqali esa umumiy statistikadan foydalangan holda yashirin iqtisodiyot darajasining o'sayotganligini yoki kamayayotganligini aniqlash mumkin(2-rasm).



1-расм. Яширин иқтисодиётни аҳоли даромадлари ва харajatлари орқали аниқлаш механизми¹



2-расм. Яширин иқтисодиётни ўзгариш йўналишини аниқлаш²

Bu mexanizmning ishlashiga asos sifatida yashirin iqtisodiyot bo'yicha nazariyani ko'rsatishimiz mumkin. Ushbu nazariyaga ko'ra yashirin iqtisodiyot darajasini aniqlash yo'llaridan biri aholining rasmiy daromadlari va jami xarajatlari o'rtasidagi farq orqali hisoblashdir. Ammo bu mexanizm orqali hisoblashda foydalaniladigan aholi ning boshqa xarajatlari soliqqa tortish obyekti sifatida qaralmasligi kerak va bundan faqatgi na yashirin iqtisodiyot da rajasining o'zgarishini ifodalovchi mexanizm sifatida foydalanish kerak. Aholining o'z xaridlarini bu tarzda qayd etishiga erishish uchun sovrinli lotoreya o'yinini televizion loyiha sifatida aholiga taqdim etish kerak va ushbu loyihani har bir viloyat kesimida sovrinlarga bo'lgan holda amalga oshirish kerak. Bu esa aholining ishonchini ortishiga va ko'proq bu ja rayonda qatnashishiga olib keladi. Bu kabi tizim na faqat O'zbekistonda, bal ki bir qator davlatlarda sinovdan o'tgan. Xarid cheklarini on layn registratsiya qilish natijasida davlatlarda soliq tushumlarida o'sish kuzatilgan. Bu o'sishga bir yil ichida erishilgan bo'lib, ushbu mexanizmning samarali ekanligidan dalolat beradi.

Харид чекларини онлайн регистрация қилиш тизимини жорий қилган давлатлар тажрибаси таҳлили³

Давлат	Жорий этилган йил	Жорий этишдан аввалги яширин иқтисодийот даражаси, %	Жорий яширин иқтисодийот даражаси, %	Эришилган ютуқлар
Венгрия	2012	22,26	20	9 ойдан сўнг ҚҚС тушумлари 15%га ошган
Жанубий Корея	2005	28	19,83	Жами харажатлардаги дебит ҳамда кредит карталардан тўлов 1 йилда 5% га ошган
Россия	2017	45,8		ҚҚС тушумларидаги ўсиш 38%га тенг бўлган
Словакия	2015	11,18		ҚҚС тушумларидаги ўсиш туризм секторидида 15%га тенг бўлган

Tadqiqotlarimiz natijasi shuni ko'rsatmoqdaki, yashirin iqtisodiyot darajasini aniqlash yo'llaridan yana biri bu ularning naqd pulga bo'lgan

talabini aniqlash orqali amalga oshiriladi. Yashirin iqtisodiyotdagi aksariyat tranzaksiyalarning naqd pul orqali amalga oshirilishini inobatga oladigan bo'lsak, naqd pulga bo'lgan talabning o'zgarishi yashirin iqtisodiyot darajasining o'zgarayotganligidan dalolat beradi. Bunda tijorat banklari o'zlari tomonidan o'rnatilgan bankomatlardan yechib olinayotgan naqd pul miqdori dinamikasi to'g'risida ma'lumotlarni Kambag'allikni qisqartirish va mehnat vazirligiga taqdim etishi lozim. Bu yerda faqatgina bu ko'rsatkichning o'zidan foydalangan holda aniqlashning o'zi yetarli emas, buning uchun o'sha davrdagi depozit foiz stavkalarini ham inobatga olish lozim, agarda insonlarga jamg'arma qilish afzal bo'lmasa ular pullarni naqdlashtirishi mumkin. Bu orqali ham tegishli xulosalarga kelish mumkin, ya'ni iqtisodiyotda yashirin iqtisodiyotning o'sish yo'nalishi bo'yicha ma'lumotga ega bo'lish mumkindir. Bundan kelib chiqqan holda tegishli chora- tadbirlarni ishlab chiqish mumkin.

Yana bir muammolardan biri hozirgi kunda norasmiy sektorda band bo'lgan aholi miqdoridir. Norasmiy sektorda barqaror daromadga ega bo'lgan jismoniy shaxslardan tashqari mavsumiy yoki qisman band bo'lganlar ham mavjud. Bu toifaga o'z uy xo'jaligidan foydalangan holda daromad oluvchi aholi misol bo'la oladi, ya'ni chorvachilik, parrandachilik bilan shug'ullanuvchi insonlar, bularning imkoniyati keng bo'lmaganligi uchun, bu faoliyatlarini qonuniy tarzda yo'lga qo'yish ularga foydali emas, chunki tomorqasidan mavsumiy foydalanadi, parranda va qoramol ham unchalik ko'p miqdorda emas, ular tomonidan sotiladigan mahsulotlar yoki ayrim xizmatlar (tikuvchilik, oshpazlik, gul ekib sotish va boshqalar) asosan naqd pulda sotiladi va bularning barchasi yashirin iqtisodiyotda amalga oshiriladi. Yashirin iqtisodiyotdan amalga oshirilayotgan

operatsiyalar miqdorini kamaytirish maqsadida shu toifadagi jismoniy shaxslar uchun bankda plastik kartalarini ochish imkoniyatini keng targ'ibot qilish lozim. Bu orqali ularning olayotgan daromadini qisman bo'lsa-da rasmiy iqtisodiyotga o'tkazib sarflashlariga hamda o'zlarining shaxsiy jamg'arib boriluvchi pensiyalarining miqdorini oshishiga olib keladi. Chunki bunda ularga o'zlarining bank plastik kartalariga o'tkazgan miqdorining istagan miqdorida shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya jamg'armasiga pul o'tkazish imkonini beradi. Bu amaliyotni amalga oshirish ular uchun ham manfaat olib keladi, chunki hozirda davlat xizmatlari, kommunal to'lovlar va boshqa xizmatlarni ham onlayn sotib olish mumkinligi ularga plastik kartochkalarga bo'lgan ehtiyoji borligidan dalolat beradi. 3-rasmda ularning daromadlarini rasmiy sektorga o'tkazish mexanizmi taklif etilgan. Buning natijasida ular nafaqat rasmiy sektordagi operatsiyalar sonining oshishiga hissa qo'shishadi, balki o'zlari uchun kelajakdagi pensiya ta'minotini qisman bo'lsa-da yaxshilashga erishishadi. Bu esa, o'z navbatida, davlatning potensial ijtimoiy xarajatlari miqdorini kamaytiradi.

Sotuv hajmining ayrim qismi yashirin iqtisodiyotda amalga oshirilayotgan faoliyat turlaridan biri bu vending mashinalardir. 2017 yildan boshlab Italiyada, 2019 yildan boshlab esa Ven griyada, mamlakatda faoliyat yuritayotgan vending mashinalarini o'rnatadigan tadbirkorlik subyektlarining barchasi o'zlarining vending mashinalarini soliq idoralariga onlayn tarzda ulashlari lozim, bunda ushbu mashinalar sotuv hajmining barchasi soliq idoralarining bazasida qayd etiladi va bu soliq bazasi ning aniq hisoblanishiga sabab bo'ladi.



3-расм. Норасмий секторда қисман ёки тўлиқ банд бўлган жисмоний шахсларнинг даромадларини расмий секторга ўтказиш механизми

Hozirda soliqqa tortish vazifasi oldida turgan muammolaridan biri QQS bilan bog'liq muammodir. Firibgarlikning yangi ko'rinishidan biri bo'lgan QQS karusel firibgarligi ko'pgina Yevropa davlatlari uchun yechimi topilmayotgan

muammolardan biri hisoblanadi. Bunda davlatlararo QQS solig'ining to'lanmasligidan foydalangan holda ayrim korxonalar davlatdan davlat budjetiga to'lamasdan turib QQSni talab qilib olishadi va bu orqali ular pul ishlashadi. Ularning ishlash mexanizmi 5-rasmda aks ettirilgan.



5-рasm. ҚҚС карусел фирибгарлиги чизмаси⁴

Bunda A kompaniya QQSni davlatbudjetiga to'lamasdan turib C kompaniya o'zi oldin to'lagan QQSni undirib oladi, chunki eksport qilinadigan mahsulotlar uchun QQS solig'i 0 foizga tengdir. A kompaniya QQSni qaytarmasdan turibchala kompaniya ham yo'qolib qoladi vadavlat budjetidan qaytarib berilgan QQS to'lovi qaytib kelmaydi. Bukabi firibgarlik yo'llari hozirdarivojlangan davlatlarda keng tarqalgan bo'lib, haligacha buni hal qilishbo'yicha mukammal metodologiya ishlab chiqilmagan. Ayrim davlatlar tomonidan bu kabi kompaniyalarni aniqlash bo'yicha parametrlar ishlab chiqilgan bo'lib, shu parametrlar orqali korxonalarningfaoliyatlari kuzatiladi. Yangi ochilgan, chet el bilan kamida 2 marta savdo aloqalarini olib borgan, kapitali ko'p, ammo xodimlari soni juda kam bo'lgan kompaniyalar shubha ostiga olinadi va ularning faoliyati tekshiriladi.

Xulosa

Izlanishlar jarayonida amalga oshirilgan tadqiqotlar va o'rganishlar natijasida quyidagi xulosalarni shakllantirishga muvaffaq bo'ldik.1. Soliq ilovasiga kiritilgan cheklar uchun xarid miqdorining ma'lum bir miqdorini "cashback" sifatida qaytarish amaliyotini joriy qilinishi xarid qilingan mahsulot va xizmatlar uchun aholining xarid cheklarini talab qilishiga, bu orqali yashirin iqtisodiyotda faoliyat yuritayotgan subyektlarning rasmiy iqtisodiyotga o'tishiga sabab



bo'ldi. 2. "Soliq.uz" aholining olayotgan daromadi va xarajati o'rtasidagi farqni aniqlash va bu farqning o'zgarish yo'nalishidan kelib chiqqan holda yashirin iqtisodiyot darajasining yo'nalishini aniqlash mumkin. Bu esa davlatga tegishli choralarni ko'rish imkonini beradi. Bunda Soliq qo'mitasi bu o'zgarishdan faqatgina yashirin iqtisodiyot darajasini o'zgarish yo'nalishini prognoz qilishda foydalanishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Aholini rasmiy daromadidan tashqari bo'lgan mablag'i uchun soliq to'lashda foydalanish, ushbu mexazimning samara bermasligiga olib kelishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Saloxov S. THE ROLE OF COMMERCIAL BANKS IN FINANCING "GREEN ECONOMY" PROJECTS //Models and methods in modern science. - 2024. - T. 3. - №. 2. - С. 5-9.
2. Khoshimov, J. (2023). Overseas experience in the development of the life insurance industry. Молодые ученые, 1(20), 65-69.
3. Qizi, Aminova Nilufar Umarboy. "ISSUES OF FINANCING OF INVESTMENT PROJECTS ON THE BASIS OF SYNDICATE LOANING." Open Access Repository 10.12 (2023): 8-14.
4. Сулейманов И., Рахимов Д. НАЛОГОВАЯ ПОЛИТИКА В ФИНАНСОВО-ПРОМЫШЛЕННЫХ ГРУППАХ //Development of pedagogical technologies in modern sciences. - 2024. - Т. 3. - №. 4. - С. 33-38.
5. Холмаматов Ф. К. ТИЖОРАТ БАНКЛАРИДА ЛИКВИДЛИЛИК РИСКНИ БОШҚАРИШ АМАЛИЁТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ОРҚАЛИ МОЛИЯВИЙ БАРҚАРОРЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШ: Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari //Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari. - 2024. - Т. 5. - №. 1. - С. 375-382.
6. Suleymanov I. FEATURES OF FINANCIAL SUPPORT FOR THE REAL SECTOR OF UZBEKISTAN'S ECONOMY IN THE CONTEXT OF GEO-FINANCIAL POLICY INSTABILITY //Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development. - 2024. - Т. 23. - С. 33-43.
7. Xolmamatov F. Bank tizimi barqarorligini oshirishda kredit risklarining ahamiyati va ularni kamaytirish yo'llari. YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT, 1 (9). - 2023.
8. Murtazaevich K. S. FOREIGN EXPERIENCE IN ATTRACTING FOREIGN INVESTMENTS INTO THE NATIONAL ECONOMY //American Journal of Interdisciplinary Research and Development. - 2023. - Т. 22. - С. 101-107.



9. Kiyosov S. U. et al. WAYS TO ENSURE THE STABILITY OF STATE FINANCES BY INCREASING LOCAL BUDGET REVENUES //Best Journal of Innovation in Science, Research and Development. – 2023. – T. 2. – №. 9. – С. 21-26.
10. Murtazaevich K. S., Vohidovich G. S. The Role Of Foreign Direct Investment In The Organization And Development Of An Innovation Cluster //Global Scientific Review. – 2023. – T. 22. – С. 244-249.
11. Джамбакиева Г. ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА ЗАТРАТ НА ПРЕДПРИЯТИИ //IMRAS. – 2024. – Т. 7. – №. 3. – С. 20-35.
12. Hoshimov J. ХОРИЙИ ИНВЕСТИЦИЯЛАРНИ ЖАЛБ ETISHGA YARATILGAN MUHIT VA UNING JOZIBADORLIK DARAJASI //Iqtisodiyot va ta'lim. – 2023. – T. 24. – №. 4. – С. 42-46.
13. Xayrulla o'g'li, I. T. (2023). PARTISIPATOR BYUDJETLASHTIRISH FUQAROLARNING BYUDJET JARAYONIDAGI ISHTIROKINING SAMARALI MEXANIZMI SIFATIDA. SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM, 2(15), 228-229.
14. Fatixovna G. A., Sayfutdinovna D. G. DETERMINATION OF PROFITABILITY OF AN ECONOMIC SUBJECT WITH THE HELP OF OPTIMIZATION OF FINANCIAL STATEMENTS ON THE BASIS OF INTERNATIONAL STANDARDS //JOURNAL OF CHEMISTRY. – 2023. – T. 6. – №. 5. – С. 8-14.
15. Saloxov, Sirojiddin. "“Yashil iqtisodiyot” ni joriy etish istiqbollari." (2023).
16. Khairullaevich, I. T. (2023). PROBLEMS AND TASKS OF EDUCATION IN THE ECONOMIC SPHERE. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 11(5), 409-412.
17. Saloxov S. PROSPECTS OF IMPLEMENTATION OF “GREEN ECONOMY” //Инновационные исследования в науке. – 2024. – Т. 3. – №. 2. – С. 5-8.
18. Tolaganova R., Ochilov B. DIRECTIONS FOR IMPROVING INVESTMENT ATTRACTION MECHANISMS //Евразийский журнал академических исследований. – 2024. – Т. 4. – №. 1 Part 2. – С. 144-151.
19. Bakhtiyor o'g'li, Ochilov Bobur. "THE IMPORTANCE AND NECESSITY OF INVESTMENT ATTRACTIVENESS IN ATTRACTING CAPITAL TO THE COUNTRY'S ECONOMY." Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development 21 (2023): 60-67.
20. Navruzov I. A. THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF THE REGIONAL INVESTMENT ENVIRONMENT IN ATTRACTING FOREIGN INVESTMENTS TO THE ECONOMY //INNOVATION IQTISODIYOTNI SHAKLLANTIRISHDA AXBOROT KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARINING TUTGAN O'RNI. – 2023. – T. 1. – №. 1.



21. Murtazaevich K. S. THE ROLE OF FOREIGN INVESTMENTS IN THE SOCIOECONOMIC DEVELOPMENT OF THE REGIONS //World Economics and Finance Bulletin. – 2023. – T. 22. – C. 7-10.